

## INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYANING O'RNI

**Jumanazarova Adolat Silibek qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil-sudlov fakulteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15049787>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rnini tahlil qilinadi.

Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro huquqiy majburiyatlari bilan qanday aloqalari borligi va boshqa davlatlarning tajribasini o'rganish natijasida erishilgan yutuqlari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Inson huquqlari, erkinliklar, Konstitutsiya, O'zbekiston, xalqaro huquq, huquqiy himoya, jahon tajribasi, qonunlar, adolat.

## РОЛЬ КОНСТИТУЦИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация.** Статья анализирует роль Конституции Республики Узбекистан в защите прав свобод человека. Рассматриваются международные правовые обязательства Узбекистана и достижения, полученные на основе опыта других стран.

**Ключевые слова:** Права человека, свободы, Конституция, Узбекистан, международное право, юридическая защита, мировой опыт, законы, справедливость.

## THE ROLE OF THE CONSTITUTION IN ENSURING HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS

**Abstract.** This article analyzes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in protecting human rights and freedoms. Moreover, it discusses Uzbekistan's international legal obligations and the achievements made through the study of the experiences of the other countries.

**Key words:** Human rights, freedoms, Constitution, Uzbekistan, international law, legal protection, global experience, laws, justice.

---

### Kirish

Inson huquqlari va erkinliklari jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lib, har bir insonning tabiiy huquqlari sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy huquqiy davlatlarning asosiy vazifalaridan biri inson huquqlarini kafolatlash va himoya qilishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu borada huquqiy poydevor vazifasini bajarib, xalqaro tamoyillarga asoslangan me'yorlarni o'zida mujassam etadi.

Shuningdek, Konstitutsiyada inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha alohida moddalar mavjud bo'lib, ular davlatning xalqaro huquqiy majburiyatlar bilan hamohangdir. Dunyo miqyosida inson huquqlarini himoya qilishning universal huquqiy asoslari mavjud bo'lib, ular Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) hamda Ijtimoiy iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966) kabi xalqaro hujjatlar barcha davlatlar uchun muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi va milliy konstitutsiyada aks etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlari va erkinliklari ustuvor qadriyat sifatida belgilangan. Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat xalq manfaatlariga xizmat qilishi va uning huquqlari himoya qilinishi kerakligi ta'kidlangan. Shuningdek uning 13-moddasida O'zbekistonda demokratiya tamoyillari asosida inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat ekanligi qayd etilgan. Konstitutsiya inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga mos kelib, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini kafolatlaydi.

Bugungi kunda inson huquqlarining ta'minlanishi faqatgina Konstitutsiya bilan cheklanib qolmay, balki uning ijrosi va amaliy qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Inson huquqlarining himoyasi huquqiy davlat qurish jarayonida eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu maqolada Konstitutsiyaning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rni, milliy va xalqaro huquqiy tajribalar hamda amaliyotdagi dolzarb masalalar tahlil qilinadi.

### **Metodolgiya**

Ushbu maqola inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda Konstitutsiyaning o'rnini ilmiy-huquqiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida quydagi metodlardan foydalanildi:

**1. Normativ- huquqiy tahlil usuli-** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar (BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, xalqaro pakt va konvensiyalar) va milliy qonunchilik asosida inson huquqlari bo'yicha normativ huquqiy o'rganildi.

**2. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli-** O'zbekiston Respublikasining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaning normalari boshqa mamlakatlar tajribasi bilan solishtirildi. Jumladan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlarini himoya qilish mehanizmlariga alohida e'tibor qaratildi.

**3. Tarixiy-huquqiy tahlil usuli** – Inson huquqlari konsepsiyasining rivojlanish tarixi, turli davrlarda inson huquqlarining davlat tomonidan tan olinishi va himoya qilinishining huquqiy asoslari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining yaratilish jarayoni va undagi inson huquqlari kafolatlariga oid o‘zgarishlar tahlil qilindi.

**4. Tahlil va sintez usuli** – Inson huquqlari bo‘yicha milliy va xalqaro me‘yorlar chuqur o‘rganilib, ularning O‘zbekiston huquqiy tizimiga ta‘siri hamda amaliy ahamiyati baholanadi. Turli huquqiy hujjatlarning bir-biriga bog‘liqligi tahlil qilinib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar asosida maqolada inson huquqlari va erkinliklarining ta‘minlanishida Konstitutsiyaning roli atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ilmiy-huquqiy adabiyotlar, amaliyot va xalqaro tajriba asosida inson huquqlarini himoya qilish tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **Natijalar**

Birinchi navbatda O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson huquqlarini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va uning yangi tahriri 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Konstitutsiyamizning asosiy qismini inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan normalar mavjud. Quyida ularning bir nechtasini havola qilib o‘tamiz. Masalan, 19-moddada O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e‘tirof etilishi va barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi qayd etib o‘tib o‘tilgan. Shuningdek 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi alohida qayd etib o‘tilgan. Shu va shunga o‘xshash moddalar ko‘plab topiladi. Jahon tajribalariga nazar soladigan bo‘lsak, Yevropa ittifoqi, Amerika va boshqa mamlakatlar o‘zlarining konstitutsiyalarida inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari bo‘yicha aniq va tizimli normativ hujjatlar ishlab chiqqan. Masalan, Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyani 1950-yilda imzolgan va u ko‘plab davlatlarning huquqiy tizimida asosiy yuridik hujjat hisoblanadi. Konvensiya, shuningdek, inson huquqlarining himoyasini ta‘minlashda har bir davlatning ma‘suliyatini belgilaydi. O‘zbekistonda Inson huquqlari himoyasining amaldagi jarayonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekiston hukumati so‘ngi yillarda inson huquqlari sohasida ba‘zi islohotlar amalga oshirdi.

Xususan, ayrim qonunlarni takomillashtirish, xalqaro huquqiy majburiyatlarga muvofiqlikni ta‘minlash va inson huquqlarini himoya qilishga doir tashabbuslar ilgari surildi.

Ammo, amaldagi qonunchilikni to'liq amalga oshirishda hali ham ba'zi muammolar mavjud. Masalan, siyosiy erkinliklar va ommaviy axborot vositalariga nisbatan cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaning inson huquqlarini himoya qilishdagi amaliy rolini yana bir bor ko'rib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan qonunlar va davlat siyosati inson huquqlari kafolatalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jumladan:

- Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etilgan.
- O'zbekiston Oliy Majlis huzurida tashkil topgan Ombudsman instituti inson huquqlari bo'yicha mustaqil nazorat funksiyasini bajaradi.

- So'ngi yillarda fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi kengaytirildi, shaxsiy daxlsizlik va erkinlik tamoyillariga rioya etish bo'yicha islohotlar amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar va ularning amaliy natijalari tahlil qilinadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

- Sud-huquq tizimi mustahkamlanib, sudlarning mustaqiligi oshirildi.
- Mehnat huquqlari, ijtimoiy himoya va ayollarning huquqlari borasida muhim islohotlar amalga oshirildi.
- Fuqarolarning erkinliklarini ta'minlash uchun yangi qonunlar qabul qilindi va mavjud qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Bundan tashqari inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida ilgari bilan solishtirilganda yaxshiroq natijalarga erishmoqda. Xususan, so'ngi yillarda mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish tizimining samaradorligi oshib, xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholanmoqda.

### **Muhokama**

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda Konstitutsiyaning o'rni beqiyos bo'lib, bu huquqiy hujjat davlatning asosiy tamoyillarini belgilaydi va fuqarolarning huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab muhim qoidalar mavjud bo'lib, ular xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan. Biroq, ushbu kafolatlarning amaliy ijrosini kuchaytirish va xalqaro tajribadan samarali foydalanish bo'yicha muhim jihatlar tahlil etilishi lozim.

Konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlash faqatgina qonunchilik bilan cheklanib qolmasligi, ularning real hayotda to'laqonli ishlashini ta'minlash muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, davlat institutlari tomonidan inson huquqlarini ta'minlash jarayonini kuchaytirish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan demokratik davlatlar inson huquqlarini himoya qilish borasida samarali konstitutsiyaviy mexanizmlarni shakllantirgan. Misol uchun :

-AQSH Konstitutsiyasi inson huquqlarini Bill of Rights (Huquqlar to'g'risidagi qonun) orqali aniq kafolatlaydi va shaxsiy erkinliklar yuqori darajada himoyalangan.

- Germaniya Asosiy qonuni inson huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan kuchli sud tizimni shakllantirgan bo'lib Federal Konstitutsiyaviy sud inson huquqlari buzilishining oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

- Fransiya Konstitutsiyasi esa inson huquqlarini kafolatlashda xalq suvereniteti va huquqiy tenglik tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston bu davlatlarning tajribasidan foydalangan holda, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy va amaliy mexanizmlarni yanada mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga dunyo miyosida inson huquqlari buzilishini aytib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu muhokama asosida inson huquqlarini himoya qilishda Konstitutsiyaning o'rnini yanada mustahkamlash uchun quydagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish- inson huquqlariga oid qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga mos ravishda doimiy ravishda takomillashtirish kerak.

2. Sud-huquq tizimi mustahkamlash- sudlarning mustaqilligini oshirish, fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish muhim.

3. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish- nodavlat notijorat tashkilotlari va mustaqil ommaviy axborot vositalarining faoliyatini qo'llab -quvvatlash inson huquqlari himoyasida muhim rol o'ynaydi.

4. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – inson huquqlari bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va ilg'or tajribalarni joriy etish lozim.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini ta'minlashning asosiy huquqiy poydevori bo'lib, u xalqaro me'yorlarga mos keladi.

Biroq, inson huquqlarini to'laqonli amalga oshirish uchun huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish, sud tizimini musthkamlash va fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga yanada keng imkoniyat yaratish lozim. Ushbu jihatlar Konstitutsiyaning inson huquqlarini himoya qilishdagi rolini yanada samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mustahkam huquqiy asosini ta'minlaydi. Asosiy qonunimizda insoning qadr-qimmati, huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bu borada olib borilayotgan islohotlar va qonunchilikni yaxshilash zarurati mavjud. O'zbekiston xalqaro huquqning talablariga muvofiq inson huquqlarini himoya qilishni davom ettirishi kerak. Buning uchun, Konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlarni to'liq amalga oshirish, davlat ichidagi tizimlarni samarali va mustahkam qilish lozim.

Inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Konstitutsiya esa ushbu huquqlarning kafolati sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, huquqiy madaniyatni yanada oshirish va amaliyotga tatbiq etish ustida doimiy ishlash talab etiladi. Shu bois quydagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Huquqiy savodxonlikni oshirish. Fuqarolar o'z huquqlarini bilishi va himoya qila olishi uchun maktab, oliy ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy targ'ibotni kuchaytirish zarur.

- Shikoyat qilish tizimini soddalashtirish. Inson huquqlari buzilganda fuqarolar tez va samarali tarzda shikoyat qilishlari uchun onlayn platformalar va maxsus huquqiy xizmatlarni rivojlantirish lozim.

- Xalqaro tajribadan foydalanish. Ilg'or xorijiy mamalakatlarining inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tajribalrini o'rganish va milliy qonunchilikka moslashtirish kerak.

- Davlat va fuqarolik jamiyati hamkorligini kuchaytirish. NNHlar, ommaviy axborot vositalari va huquqshunos mutaxassislarning inson huquqlari borasidagi faoligini oshirish muhim.

Konstitutsiyaning ahamiyatini chuqur anglab, inson huquqlarini ta'minlashga har bir fuqaro va davlat organlari o'z hissasini qo'shishi lozim. Bu esa jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda eng muhim shartdir.

## REFERENCES

1. <https://lex.uz>. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023).
2. <https://lex.uz>
3. <https://lex.uz>. Yevropa inson huquqlari konvensiyasi (1950).<https://lex.uz>.
4. <https://uz.wikipedia.org>. Amerika Inson Huquqlari Deklaratsiyasi(1948).
5. Shukurov S. (2020). Inson huquqlari va ularning himoyasi. Toshkent:O‘zbekiston noshirligi.uz.m.wikipedia.org
6. <https://constitution.uz>. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
7. <https://papers.ssrn.com>. International Human Rights Law and the of Constitutions.”(2021). Harward Law Review.
8. <https://uz.wikipedia.org>. Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy
9. <https://www.cambridge.org>. Human Rihgts in the 21<sup>st</sup> century (2021). Oxford University Press.